QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR KENGASHINING QARORI

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ MINISTRLER KEŃESINIŃ QARARÍ

2024 - yil 28 - mart 226-13-0-Q/24 Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

Jamoat joylarida tartibni saqlash, obodonlashtirish va sanitariya qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida

Keyingi yillarda shahar va tumanlar qiyofasini tubdan o‘zgartirish, aholi punktlarining infratuzilmasini rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish ishlariga katta e’tibor qaratilib, zamon talablariga mos qator turar joy binolari, ma’muriy va madaniy-maishiy binolar, ta’lim, sport va tibbiyot muassasalari, yangi istirohat bog‘lari va xiyobonlar bunyod etildi.

Shahar va tumanlar hududlarining yanada obod bo‘lishi uchun mavjud madaniy-meros obektlari, bunyod etilgan bino-inshootlarga e’tibor va g‘amxo‘rlik bilan qarashi, ularning yanada go‘zal va maftunkor bo‘lishi yo‘lida har bir fuqaro o‘z hissasini qo‘shishga harakat qilishi lozim.

Ozodalik va tartibni saqlash, ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish ishlarini yanada yaxshilash, har bir bino, inshoot va uy-joylarni talab darajasida saqlash ustuvor vazifalardan biridir.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y. 9-son, 320-modda) hamda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y. 1-son, 38-modda) O‘zbekiston Respublikasi qonunlari ijrosini ta’minlash, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasida fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash, aholi turmush darajasini hamda aholi punktlarida sanitariya va ekologik vaziyatni yanada yaxshilash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi**:

1. Jamoat joylarida tartibni saqlash, obodonlashtirish va sanitariya qoidalari (keyingi o‘rinlarda - Qoidalar) **ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekalogiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi soliq boshqarmasi, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari mazkur qaror bilan tasdiqlangan Qoidalarga qat’iy rioya etilishini o‘z nazoratiga olsinlar.

3. Quyidagilar:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosarlari, Nukus shahar va tumanlar hokimlari ushbu qaror bilan tasdiqlangan Qoidalar talablarini amalga oshirish yuzasidan zaruriy chora- tadbirlar belgilasinlar va har oy yakuni bilan ushbu masala muhokama etib borilishini ta’minlasinlar.

4. Mazkur qaror matbuotda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirgan hisoblanadi.

5. Axborot xizmati (B.Xojanov) mazkur qarorni Vazirlar Kengashining rasmiy veb-sahifasida e’lon qilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari B.Otemuratov zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi **F. Ermanov**

Qoraqalpog’iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2024-yil 28-martdagi
226-13-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Jamoat joylarida tartibni saqlash, obodonlashtirish va sanitariya QOIDALARI

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Qoidalar Nukus shahri va tumanlar markazlari hamda boshqa aholi punktlari hududida jamoat tartibini saqlash, obodonlashtirish va sanitariya qoidalariga rioya qilish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Qoidalarda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

uy-joy fondi — inson yashashi uchun yaroqli bo‘lgan turar joydan, shu jumladan uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylardan (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar uchun internat-uylar, shuningdek bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylardan) iborat bo‘lgan fond.

turar joylar — uylar, ko‘p kvartirali uylardagi kvartiralar, boshqa imoratlardagi yashash uchun mo‘ljallangan xonalar va o‘zga turar joylar.

xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkati (keyingi o‘rinlarda — XUJMSH) ko‘p kvartirali bitta yoki yaqin, zich joylashgan, obodonlashtirish elementlari bo‘lgan umumiy er uchastkasi bilan qamrab olingan bir nechta uydagi xususiy turar joylar mulkdorlarining birlashmasidir.

obodonlashtirish — aholi hayoti uchun qulay va madaniy shart-sharoitlarni yaratish maqsadida hududlarni muhandislik jihatidan tayyorlash, yo‘llar qurish, hududlarni tozalash, zaxini qochirish, ko‘kalamzorlashtirish va irrigatsiyalash tadbirlarini amalga oshirish, mikroiqlimni yaxshilash, havo havzasi, ochiq suv havzalari va tuproqni ifloslanishdan himoya qilish, u yoki bu hududni qurilish uchun yaroqli holga keltirish va belgilangan maqsadda normal foydalanish, amalga oshiriladigan shovqinlar darajasini kamaytirish ishlarining yig‘indisi;

obodonlashtirish ob’ektlari — ko‘chalar, tor ko‘chalar, yo‘llar, markaziy maydonlar, yo‘laklar, ko‘priklar, er osti yo‘llari, yo‘lovchilar er osti o‘tish yo‘llari, ko‘chalar, aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va ularning dam

olishlari uchun foydalaniladigan ob’ektlar (madaniyat va istirohat bog‘lari, bog‘lar, xiyobonlar), sement sug‘orish ariqlari tarmoqlari;

chiqindilar — ishlab chiqarish yoki iste’mol qilish jarayonida xom ashyo, materiallar, xomaki mahsulotlar, boshqa buyumlar yoki mahsulotlarning hosil bo‘lgan qoldiqlari, shuningdek o‘zining iste’mol xususiyatlarini yo‘qotgan tovarlar (mahsulotlar);

qurilish chiqindilari — qurilish, tiklash, ta’mirlash va turar joy uylarini, ma’muriy binolarni, ko‘p qavatli uyning xonadonlarini buzish ishlari chog‘ida vujudga keladigan chiqindilar.

II. Obodonlashtirish obektlarida jamoat tartibini saqlash

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisi o‘rnatilgan jamoat tartibiga rioya qilishlari shart.

4. Madaniyat muassasalari, savdo, umumiy ovqatlanish va boshqa korxonalar xodimlari mahalla vakillari bilan birgalikda jamoat tartibini buzish hollarini oldini olish uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko‘rishlari lozim.

III. Jamoat joylarida sanitariya talablariga rioya qilish

5. Fuqarolar barcha jamoat joylarida tozalikka va tartib-intizomga rioya qilishlari shart.

6. Aholi yashash punktlari, mahallalar, ko‘chalar, maydonlar, ochiq suv havzalarining sohillari, ko‘priklar, er osti o‘tish yo‘llari, yo‘laklar, bog‘lar, xiyobonlar, maydonlar hamda bo‘sh turgan er maydonlarini chiqindi va qor uyumlaridan tozalash — ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda tegishliligi bo‘yicha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, shirkatlar, ijarachilar, uy egalari yoki maxsus qaror bilan ushbu hududga biriktirilgan tashkilot zimmasiga yuklanadi.

7. Hududga biriktirilgan tashkilot, korxona va muassasalar quyidagi shartlarni bajarishga majburlar:

zarur bo‘lgan miqdorda farroshlarni jalb qilish;

yig‘ilgan chiqindilarni maxsus ajratilgan joylarga vaqtida chiqarib tashlashni ta’minlash;

qish paytlarida tevarak-atrofni qor uyumlari, muzdan o‘z vaqtida tozalash, balkonlar va bino karnizlarini sumalaklardan tozalash, yoz paytlarda suv sepib, supurish.

8. SHirkatlar, yotoqxona binolari, korxona, muassasa, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining rahbarlari, ijarachilar, quruvchilar binolar va qurilishlar yo‘lkalarining har 50 metr oraliq masofasida maxsus belgilangan mayda chiqindilarni yig‘ish qutilarini o‘rnatishlari va ularni o‘z vaqtida tozalab turishni ta’minlashlari shart.

9. Jamoat transportining so‘nggi bekatlarini tozalash shartnomaga binoan shahar, tuman obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

10. Ko‘chalarni iflos qilishi mumkin bo‘lgan yuklar, qurilish chiqindilari, qum va tuproq faqat maxsus jihozlangan yuktransportlarda namlangan holda tashilishi shart.

Ko‘chalarni ifloslantirish hollarining oldini olish maqsadida, bunday yuklar ortilgan yuk transportlar ustini brezent bilan yopish tavsiya etiladi.

11. SHahar, tuman hududlarini kuzgi — qishki mavsumda tozalash ishlari har yili 1-oktyabrdan 1-martgacha belgilanadi. Bunda, ko‘chalarni xazondan, qor uyumlari, muz, chiqindi, loydan tozalash, zarur bo‘lib qolgan taqdirda ko‘chalarning qatnov qismiga hamda yo‘lovchilar uchun yo‘laklarga qum va tuz sepish ishlarini bajarish ko‘zda tutiladi.

12. Ko‘chalar, maydonlar, xiyobonlar va yo‘lovchilar uchun yo‘laklarni qor uyumi va muzlardan tozalash ishlari qor tushishi bilanoq boshlanadi. Bu ishlar transport hamda yo‘lovchilarning bemalol qatnovini ta’minlash uchun dastavval markaziy (asosiy) ko‘chalardan boshlanadi.

13. Ko‘chalarning qatnov qismiga, maydonlarga, chorrahalarga qiyaliklarga mexanizatsiyalashgan usulda qum va tuz sepish ishlarini bajarish ixtisoslashtirilgan boshqarmalar hamda tuman obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan rejali ravishda amalga oshiriladi.

14. Tashkilotlar, korxonalar, muassasalar, shirkatlar hamda shaxsiy uylari bo‘lgan fuqarolar zarur uskunalarga ega bo‘lishlari, o‘zlariga tegishli yo‘l va yo‘lkalarni qordan tozalashlari va qum sepib turishlari kerak.

15. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarini hamisha ozoda va saranjom-sarishta tutish maqsadida, har shanba kuni “Tozalik kunlari” deb tavsiya

etilsin.

Barcha korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, savdo ob’ektlari, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat, transport korxonalari, o‘quv yurtlari, shirkatlar, mahalla faollari, butun aholi o‘z tevarak-atrofidagi hududlarni tozalab turishi, sug‘orish tarmoqlarini tozalashlari hamda dov-daraxtlarni parvarish qilib borishlari shart.

IV. O‘simlik dunyosini muhofaza qilish

16. O‘simlik dunyosining yashil boyliklari kimga qarashli bo‘lishidan qat’i nazar, ular shahar, tumanlarning daxlsiz yashil fondi hisoblanadi.

17. O‘simlik dunyosining yashil boyliklarini saqlash hamda parvarish qilish mas’uliyati:

maydonlar hamda ko‘chalarda — shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalari;

madaniyat va istirohat bog‘lari, xiyobonlar — bog‘larning rahbarlari;

uylarda eshik oldidan ko‘chaning qatnov qismi va hovlilarda-shirkatning raislari, binolar, mahalla raislari, uy egalari hamda ijarachilar;

korxona, muassasa, maktab, shifoxona va boshqa tashkilotlar hududlarida - shu tashkilotlarning ma’muriyati zimmasiga yuklatiladi.

18. Obodonlashtirish boshqarmalari daraxtlar va butalarning shox-shabbalarini o‘z vaqtida kesib turishlari, ularga shakl berishlari, shahar, tumanlardagi transport qatnaydigan yo‘llarga alohida e’tibor berishlari shart.

19. Daraxtlarni kesish, ularga shakl berish, kavlash, ko‘kalamzorlashtirish ishlari tashkilotlar, korxonalar, muassasalar buyurtmasiga binoan ularning hisobidan amalga oshiriladi.

20. Zararlantirilgan yoki nobud qilingan har bir tup daraxt o‘rniga aybdor shaxs tomonidan ko‘chat o‘tqazilishi va parvarish qilinishi lozim.

21. Quyidagilar man etiladi:

daraxtlarni, butalarni sindirish, ularni tilib, o‘yib yozish, belanchak osish, arqonlar, sim bog‘lash, mixlar qoqish, mevalar, shox-shabbalar, gullarni uzish, daraxtlarning sharbati va elimini olish, maysazorlar ustidan yurish, daraxtlarga

e’lon, axborot va reklamalarni osish;

aholi yashash mavzelarida, bolalar bog‘chalari va maktab maydonlaridagi o‘tirgichlar, qutilar, chiroqlar, panjaralarni buzish, bog‘lar va xiyobonlardagi shu kabi buyumlar va uskunalarni buzish;

Tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi, Obodonlashtirish boshqarmalari va shahar, tuman hokimliklarining ruxsatisiz daraxt va butalarni, shu jumladan qurib qolgan va kasallangan daraxt ko‘chatlarini joyidan qo‘zg‘atish, kavlab tashlash, kesish va shakl berish;

turar joy binolari oralig‘i va xususiy xonadonlar atrofidagi hududlarni sabzavot-poliz ekinlari ekish maydonlariga aylantirish;

kimyoviy moddalar, sanoat chiqindilari bilan ifloslangan suvlar va boshqa zararli moddalar hamda suyuqliklarni ko‘chatlar tagiga yoxud uning atroflariga to‘kish.

V. Turar joy fondini saqlash va yaroqli holda tutish bo‘yicha javobgarlik mas’uliyati to‘g‘risida

22. SHahar va tuman hokimliklari, tashkilot va korxonalarga qarashli turar joy binolari va turar joy xonalari fuqarolarga belgilangan tartib bo‘yicha doimiy yoki vaqtincha foydalanish uchun beriladi.

23. Istiqomat qiluvchi yoki uning oila a’zolari tomonidan turar joy vayron qilinsa yoxud unga shikast etkazilsa hamda bu haqdagi tegishli ogohlantirish va jamoatchilik ta’siridan to‘g‘ri xulosa chiqarilmagan hollarda aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda, boshqa turar joy berilmasdan ko‘chirib yuboriladi.

24. Xususiy uylarning egalari, ularni orasta saqlashi, ta’mirtalab ahvolga kelgan uylarni arxitektura talablariga binoan joriy ta’mirlashi hamda binoning fasad qismini ko‘rkam qilishga majbur.

25. Balansida turar joy binolari bo‘lgan korxona, tashkilotlar, xususiy uy-joy mulkdorlar shirkatlari (XUJMSH), istiqomat qiluvchilar hamda uy egalari quyidagilarga rioya qilishlari shart:

ko‘p qavatli turar joy binolarining xonadonlaridagi hamma xonalar — bevosita istiqomat qilinadigan xonalar hamda yordamchi xonalar, umum

foydalaniladigan joylar va qo‘rg‘on hovlisi hamisha toza va saranjom bo‘lishi va ulardan maqsadga muvofiq foydalanish;

pashsha va boshqa shu kabi zararkunanda hasharotlarni yo‘qotish bo‘yicha muntazam ravishda tadbirlar belgilab borish va profilaktik dezinfeksiya va deratizatsiya tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha tuman dezinfeksiya stansiyasi bilan shartnomalar tuzish;

turar joylar uchun belgilangan yong‘inga qarshi kurash qoidalariga qat’iy rioya qilish;

elektr simlarini uzilmaganligini (turar joy xonalari va umum foydalaniladigan joylarda) kuzatib borish, biron-bir nuqson ko‘zga tashlanganda darhol XUJMSH yoki tuman, shahar elektr tarmog‘iga xabar berish;

gaz jihozlariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lib, ularni ishdan chiqish hamda buzilishidan asrash, gazdan foydalanish qoidalariga qat’iy amal qilish;

sanitariya-texnika jihozlarining sozligini va vodoprovod hamda kanalizatsiya tizimlarining to‘g‘ri ishlayotganini kuzatib borish, suv oqib ketishini, rakovina va unitazlarning ifloslanishining oldini olish bo‘yicha shoshilinch tadbirlar belgilash;

Markaziy isitish tizimining isitish jihozlarini hamisha soz holda saqlash.

26. Uylarning hovlilari hamisha ozoda bo‘lishi, qishki paytlarda hovlilarda turar joy binolariga hamda xizmat xonalariga olib kiradigan yo‘laklar tozalanishi kerak.

27. Ta’mirdan chiqarilayotgan uylardan, qurilish chiqindilari ta’mirlash-qurilish tashkilotlarining kuchi va mablag‘i bilan har kuni tashib ketilishi kerak. Trotuarlar va yo‘laklarning o‘tish qismiga qurilish chiqindilarini tashlash va saqlash taqiqlanadi.

28. XUJMSHning rahbarlari, uy egalari va uylarga bevosita rahbarlik qilish zimmasiga yuklatilgan boshqa shaxslar uylaridagi tartibni doimo saqlashlari, har kuni binoning tashqi ko‘rinishi hamda uning ayrim qismlari hisoblangan balkon, karniz, tarnov va erto‘lalarning texnikaviy holatini kuzatib borishlari kerak. Tomlar va tarnovlarni o‘z vaqtida chiqindilardan, xazondan va qordan tozalashlari lozim.

29. XUJMSH rahbarlari, farroshlar zinapoyalarni va maydonchalarni, uyga

tutash bo‘lgan hudud, trotuar va ko‘chalarni hamisha toza turishini, suv sepib turilishini ta’minlashlari, shuningdek, har bir turar joy binosida hovlining hamda unga tutashgan hududning sanitariya holatiga mas’ul bo‘lgan kishilarni nomlari yozilgan peshtaxtalarni ilib qo‘yishlari kerak.

30. Turar joy fondlari va uning jihozlariga zarar etkazgan xonadonlarning sanitariya holati buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslarga nisbatan zarur talabchanlik ko‘rsatmagan XUJMSHlari, tashkilot va idoralarning rahbarlari buning uchun shaxsan javobgar bo‘ladilar.

31. SHahar va tuman hokimliklari quyidagilarni amalga oshirishlari shart:

uy, mavze va mahalla faollari, injener-texnik xodimlari va farroshlar faoliyatini turar joy fondlaridan foydalanishni yaxshilashga hamda shikastlanishida aybdor bo‘lgan kishilarni qonun bo‘yicha javobgarlikka tortishga qaratishlari;

XUJMSHlari, mahalla faollari hamda aholining turar joy binolar va hovlilarni saqlashni yaxshilashga qaratilgan tashabbuslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ilg‘or tajribani keng ommalashtirish, uy xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatishning jamoatchilik asosidagi formalarini rag‘batlantirish (xonadonlardagi mayda nuqsonlarni bartaraf qilish, dov-daraxtlarni parvarish etish).

32. Quyidagilar man etiladi:

turar joy xonalarini va umum foydalaniladigan joylarni o‘zboshimchalik bilan qayta jihozlash yoxud qayta rejalashtirish (panjaralar o‘rnatish, ularni o‘rnidan qo‘zg‘atish va olib tashlash, eshiklarni almashtirish, eshik o‘rnini qaytadan qurish, yashash xonasi va yordamchi binolar qurish, isitish jihozlari, sanitariya-texnika uskunalari, plitalar, elektr hisoblagichlarning o‘rnini almashtirish, balkonlarga va peshayvonlarga deraza o‘rnatish va panjara qilish, ko‘chaga qaragan balkonlarga sim tortib kir va boshqa narsa yoyish, balkonlarga har xil idishlarni uyib qo‘yish).

Istiqomat qiluvchilar va uy egalari tomonidan turar joylarni o‘zboshimchalik bilan qayta qurish va ichki tarkibiga o‘zgartirishlar kiritish man etiladi. O‘zboshimchalik bilan kiritilgan o‘zgartirishlar va qurilishlar XUJMSHlari hamda shahar, tuman arxitektura va qurilish bo‘limlarining talabiga ko‘ra o‘z hisoblaridan bartaraf etilishi va xonalarni avvalgi holatiga keltirib qo‘yilishi shart. Mazkur talab bajarilmasligi, xonalarni avvalgi holiga keltirish ishlarini yuqorida qayd etib o‘tilgan idoralar kuchi bilan bajarilishiga va xarajatlarni qonun

hujjatlariga muvofiq xonadon egalaridan undirib olinishiga asos bo‘ladi.

turar joy binolarining hovlilarida, maxsus ajratib qo‘yilgan joydan tashqarida har xil buyumlar va idishlarni qo‘yish hamda saqlash;

nuqsoni bo‘lgan elektr simlardan foydalanish, elektr simlarni mixga ilib qo‘yish, ularga gulli qog‘ozlar yopishtirish, simlarga arqonlar bog‘lash, roliklarga, elektr simlariga, armaturalarga har xil buyumlarni ilib qo‘yish, qo‘lbola probkalardan foydalanish, elektr chiroqlarini qog‘oz va boshqa materiallar bilan o‘rash, elektr dazmollar, elektr choynaklar, elektr plitalardan va boshqa turdagi elektr buyumlaridan o‘tga chidamli tagliklarsiz foydalanish;

gaz plitalaridan xonalarni isitish uchun foydalanish, gaz plitalari ustiga kiyim va boshqa buyumlarni ilish, gaz trubalariga arqonlar bog‘lash, yosh bolalarning gazdan foydalanishiga yo‘l qo‘yish;

radiator kranlaridan issiq suv olish.

33. Ushbu bo‘limdagi qoidalarning bajarilishini nazorat qilib borish, shahar va tuman hokimliklari, XUJMSH, “Hududgaz” unitar korxonasi Qoraqalpog‘iston filiali, shahar va tuman bo‘limlari, Ichki ishlar idoralari, Milliy gvardiya bo‘linmalari, obodonlashtirish boshqarmalari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salamatligi xizmati hamda Davlat veterinariya boshqarmasining zimmasiga yuklanadi.

VI. Yakunlovchi qoidalar

34. Ushbu Qoidalarga Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi barcha jismoniy va yuridik shaxslar (mulkchilik shaklidan qat’i nazar) rioya etishlari shart.

Qoidalar talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining tegishli moddalari bilan ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.